

## PROKURATURA ORGANLARI HUQUQIY MAQOMI TUSHUNCHASI, MAQSADI VA VAZIFALARI

*Bahodirov Muhammad Umedjon o'g'li*

*O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza*

*qilish akademiyasi tinglovchisi*

*Telefon: +99(99) 351 99 07*

*E-mail: bahodirov39@gmail.com*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada prokuratura organlarining konstitutsiyaviy huquqiy maqomi, vazifalari, maqsadi kabilar o'rganilgan.

Shuningdek, xronologiya bo'yicha O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlarining kelib chiqishi, rivojlanishi, isloh qilinishi kabilar ham keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** prokuratura, tarix, maqsad, vazifa, islohot, qiyos.

### THE CONCEPT, PURPOSE AND TASKS OF THE LEGAL STATUS OF THE PROSECUTOR'S OFFICE

#### ABSTRACT

This article examines the constitutional legal status, duties, and goals of the prosecutor's office.

Also, the origin, development, and reformation of the prosecutor's office of the Republic of Uzbekistan according to the chronology are mentioned.

**Key words:** prosecution, history, purpose, mission, reform, comparison.

Prokuratura organlari maqsadi va vazifalariga to'xtalishdan oldin, ushbu organlarning huquqiy maqomi tushunchasiga alohida to'xtalib o'tganimiz maqsadga muvohiq hisoblanadi.

Huquqiy maqom tushunchasini sodda tilda ifodalaydigan bo'lsak, ma'lum bir subyektning qonuniy jihatdan mavjudligi hamda ushbu mavjudlikni belgilovchi normalar huquqiy maqom tushunchasini tashkil qiladi.

Yuqorida keltirib o'tilganidek, O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi huquqiy maqomini asosan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va **“Prokuratura to'g'risida”gi 257-II-sonli** O'zbekiston Respublikasining qonuni tashkil qiladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXV bobi prokuratura organlariga bag'ishlangan hisoblanadi.

Umuman olganda, prokuratura organlarining tashkil etilishida muhim ahamiyat kasb etgan qonun hujjatlarini quyida ko‘rishimiz mumkin:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prokuraturasi organlari to‘g‘risida”gi 8-yanvar 1992-yildagi PF-313-sonli Farmoni;
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Harbiy tribunallar va harbiy prokuratura organlari to‘g‘risida”gi 28-yanvar 1992-yildagi PF-355-sonli Farmoni;
3. O‘zbekiston Respublikasining 8-dekabr 1992-yildagi Konstitutsiyasi;
4. O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi 9-dekabr 1992-yildagi 746-XII-sonli qonuni (dastlabki);
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining “Prokuratura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga kiritish to‘g‘risidagi 9-dekabr 1992-yildagi 747-XII-sonli qarori;
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Prokuratura organlarining moddiy-texnika ta‘minotini yaxshilash hamda shtatlari sonini ko‘paytirish to‘g‘risida”gi 19-sentabr 1993-yildagi 468-sonli qarori (hozir kuchini yo‘qotgan);
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining Harbiy prokuraturasini tashkil qilish to‘g‘risida”gi 30-mart 1999-yildagi PF-2277-son farmoni;
8. O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida 29-avgust 2001-yildagi 257-II-son qonuni;
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi soliqqa oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 28-noyabr 2002-yildagi 415-sonli qarori;
10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 06.05.2005 yildagi 29-I-sonli qarori;
11. O‘zbekiston Respublikasining “Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi sudlarga o‘tkazilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 11-iyul 2007-yildagi O‘RQ-100-sonli qonuni;
12. O‘zbekiston Respublikasining **“Prokuratura to‘g‘risida”gi 257-II-sonli qonuni;**

Ushbu hujjatlar prokuratura organlarining huquqiy maqomi shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prokuraturasi organlari to‘g‘risida”gi 8-yanvar 1992-yildagi PF-313-sonli Farmonida O‘zbekiston Respublikasida Sobiq Ittifoq qaramog‘idagi O‘zbekiston SSR prokuraturasi O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasiga aylantirilgan. Shu orqali prokuratura organlari huquqiy maqomi shakllantirila boshlangan. Ammo u vaqtda hali kamchiliklar ancha bo‘lib, bir qancha o‘zgartirish va qo‘shimchalar talab etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Harbiy tribunallar va harbiy prokuratura organlari to‘g‘risida”gi 28-yanvar 1992-yildagi PF-355-sonli Farmoni orqali “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi Qonun va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining “O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan harbiy qismlar va harbiy ta‘lim muassasalari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq 1992-yil XIV son va Respublika Qurolli Kuchlarida qonuniylik va tartibni ta‘minlash maqsadida harbiy prokuraturaning Respublika hududida joylashgan organlari O‘zbekiston Respublikasi prokuroriga bo‘ysunishi va sobiq Turkiston okrugi Harbiy prokuraturasi negizida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy prokuraturasini tashkil etilgan. Bunda tashqari Respublika hududidagi barcha harbiy qismlar, qo‘shinlar, strategik va umumiy maqsadli birlashmalar, harbiy ta‘lim muassasalari va boshqa harbiy tuzilmalarda prokuror nazoratini amalga oshirish ularga yuklanishi, harbiy sudlar va harbiy prokuratura organlari yangi qonun hujjatlari qabul qilingunga qadar o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va sobiq SSSR qonun hujjatlarining, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo‘lmagan qismlariga amal qilishlari, O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasi bir oy muddatda Harbiy prokuratura to‘g‘risidagi nizom loyihasini tayyorlashi va Respublika Oliy Kengashi ko‘rib chiqishi uchun kiritishi, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy sudlar va harbiy prokurorlarni zarur mablag‘ bilan ta‘minlashni, moddiy-texnikaviy ta‘minlashni, harbiy xizmatchilarning huquqiy maqomi hamda shaxsiy tarkibga beriladigan barcha turdagi pul va boshqa nafaqalar saqlanib qolinishini kabilar keltirib o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining Harbiy prokuraturasini tashkil qilish to‘g‘risida”gi 30-mart 1999-yildagi PF-2277-son farmonida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Harbiy prokuraturasi negizida mavjud lavozimlar soni va mehnat haqi fondi doirasida O‘zbekiston Respublikasining Harbiy prokuraturasi tashkil qilinib, uning tarkibida harbiy okruglarning to‘rtta harbiy prokuraturasi tuzilishi, O‘zbekiston Respublikasi Prokuraturasi rahbariyati tarkibiga Bosh prokurorning o‘rinbosari — O‘zbekiston Harbiy prokurori lavozimi qo‘shimcha ravishda kiritilishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Yuqoridagi ma‘lumotlardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, mustaqillikning dastlabki yillaridan 1999-yilgacha O‘zbekiston Respublikasi hududidagi barcha harbiy qismlar, qo‘shinlar, strategik va umumiy maqsadli birlashmalar, harbiy ta‘lim

muassasalari va boshqa harbiy tuzilmalarda prokuror nazoratini amalga oshirish O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy prokuraturasi tomonidan amalga oshirilgan. 1999-yilgi islohot natijasida esa O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Harbiy prokuraturasi negizida O‘zbekiston Respublikasining Harbiy prokuraturasi tashkil qilinib, prokuror nazoratini olib borishi belgilangan. 1999-yildan hozirgi kungacha bu funksiyani ushbu prokuratura amalga oshirib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 8-dekabr 1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiyasi prokuratura organlarining huquqiy maqomini yanada mustahkamlab berdi. Xususan, yuqorida ta’kidlaganimizdek, Konstitutsiyamizning XXV bobi, ya’ni 143-, 144-, 145- va 146-moddalari prokuratura organlarining huquqiy maqomini mustahkamlab bergan. Shuni ta’kidlash lozimki, milliy qomusimizga hozirgi kunda 15 marotaba o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan bo‘lsa ham, 1992-yildan beri prokuratura qismi o‘zgarishlarsiz kelayotgan qismlardan bo‘lib turibdi.<sup>1</sup>

O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida 29-avgust 2001-yildagi 257-II-son qonuni bilan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Qonunning yangi tahriri, bir qancha o‘zgarishlar va qo‘shimchalarga boy bo‘lgan.

Xususan, eski tahrirda O‘zbekiston Respublikasi prokuratura idoralari quyi pog‘onadagi prokurorlar yuqori pog‘onadagi prokurorlarga bo‘ysinish tartibida O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori boshchiligidagi yagona markazlashgan tizimni tashkil etishlari, nazoratni va o‘z vakolatlarini davlat hokimiyati hamda boshqaruv mahalliy idoralaridan, mansabdor shaxslardan, jamoat birlashmalaridan mustaqil ravishda O‘zbekiston Respublikasi hududida amal qilib turgan qonunlarga, xalqaro va davlatlararo shartnomalarga (bitimlarga) qat’iy rioya etib, faqat O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo‘ysingan holda amalga oshirishlari, qonuniylik hamda jinoyatchilikning ahvoli, asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida, boshqaruv idoralari tomonidan qonunlarga rioya etilishini ta’minlash, davlat va jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning huquqlarini muhofaza qilish borasidagi vazifalar qanday bajarilayotganligidan tegishli bo‘lishiga qarab, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini, Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat hokimiyatining oliy idoralarini, O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi hukumatlarini, xalq deputatlari mahalliy Kengashlarini, hokimlarini xabardor etishlari, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish to‘g‘risidagi, shuningdek davlat siri hamda qonun bilan muhofaza qilinadigan boshqa sirni saqlash

<sup>1</sup> Qarang <https://review.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-konstituciyasiga-hozirgi-kungacha-nechi-marta-ozgartirish-kiritilgan>

haqidagi qonun talablariga zid kelmaydigan darajada oshkora ish ko'rishlari ko'rsatib o'tilgan edi.<sup>2</sup>

Yangi tahrirda esa, Prokuratura organlari faoliyatini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari birlik, markazlashganlik, qonuniylik, mustaqillik va oshkoralik asosida amalga oshirishlari ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, Prokuratura organlarining xodimlari o'z vakolatlari davrida siyosiy partiyalarga a'zolikni to'xtatib turishlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar prokurorlari har yili tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, xalq deputatlari Kengashlariga o'z faoliyati to'g'risida hisobot taqdim etishlari, zarur bo'lgan hollarda, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini qonuniylikning va jinoyatchilikka qarshi kurashning holati to'g'risida xabardor qilishlari ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, prokuratura organlari qonunlarning ijro etilishini nazorat qilishga va jinoyatchilikka qarshi kurashga doir faoliyati to'g'risida jamoatchilikni muntazam xabardor qilish, o'zining faoliyati to'g'risidagi axborotdan jismoniy va yuridik shaxslarning foydalanishini qonunchilikda belgilangan tartibda ta'minlash yo'li bilan o'z faoliyatini oshkora amalga oshirishi ham keltirib o'tilgan.<sup>3</sup>

Yuqoridagilarga qo'shimcha qilib aytishimiz mumkinki, yangi tahrirda prokurorning qonunni ochiqdan-ochiq buzish hollariga chek qo'yish to'g'risida amrnoma berishga bo'lgan vakolati bekor qilingan. Umuman olganda yangi tahrirda amrnoma to'liq olib tashlangan. Xo'sh, o'zi amrnoma nima edi?

O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi 9-dekabr 1992-yildagi 746-XII-sonli qonunining 28-moddasida prokuror amrnomasi to'g'risida batafsil tushuntirish berilgan. Unga ko'ra **qonun buzilishini bartaraf etish to'g'risidagi** amrnoma prokuror tomonidan ana shu qonunbuzarlikka yo'l qo'ygan idora yoki mansabdor shaxsga, yohud yuqori idoraga yoki ana shu qonunbuzarlikni bartaraf etishga qodir mansabdor shaxsga yuboriladi. Qonun buzilganligi yaqqol ko'zga tashlangan hollarda va bu fuqarolar, davlat, korxonalar, muassasa, tashkilotning huquqlari va qonuniy manfaatlariga jiddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lganda amrnoma kiritiladi. Amrnoma zudlik bilan bajarilib, bundan prokuror voqif etilishi lozim. Amrnomadagi talablarga norozi bo'lgan taqdirda idora yoki mansabdor shaxs bu amrnoma ustidan yuqori pog'onadagi prokurorga shikoyat qilishi mumkin. Prokuror shikoyatni uch kunlik muddat ichida qarab chiqishi shart. Shikoyat amrnoma ijrosini to'xtatib qo'ymaydi.<sup>4</sup>

Bundan tashqari aytishimiz mumkinki, "Prokuratura to'g'risida"gi qonunning yangi tahrirda prokuror nazorat hujjatlariga ariza ham kiritilgan. Xususan, yangi tahrirdagi qonunning 49-moddasida ko'rsatilishicha prokuror fuqarolar, yuridik

<sup>2</sup> Qarang <https://lex.uz/uz/docs/-31452>

<sup>3</sup> Qarang <https://lex.uz/uz/docs/-106197#-106217>

<sup>4</sup> Qarang <https://lex.uz/uz/docs/-31452>

shaxslar va davlatning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun sudga ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega.

Eski tahrirda esa, ushbu prokuror nazorat hujjati ko'rsatilmagan bo'lib, ariza o'rniga o'rniga amrnoma ko'rsatib o'tilgan.

Umuman olganda, amrnomaning bekor qilinishi bilan sud organlarining mustaqilligini yanada mustahkamlangan deb aytishimiz mumkin, chunki bu orqali sud organlarining ishlariga prokuratura organlari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri aralashish holatlari oldi olindi.

Shuningdek, nazorat predmeti borasida bir muhim o'zgarishni ko'rsatib o'tish kerak. 1992-yil 9-dekabrda «Prokuratura to'g'risida»gi qonundan farqli ravishda 2001-yil 29-avgustdagi Qonunda «fuqarolarning qonunlarga rioya etishlari» ustidan nazorat ko'zda tutilmagan. Ya'ni prokuratura organlarini fuqarolarning ta'qib-tazyiq ostiga oluvchi organ sifatida emas, balki ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi organ sifatida jamiyatda rolini oshirish asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Bu «insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish» yo'lidagi muhim qadam hisoblanadi.<sup>5</sup>

Prokuratura organlarining asosiy vazifalari qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iboratligi «Prokuratura to'g'risida»gi qonunning yangi tahririning 2-moddasida ko'rsatib o'tilgan.

Prokuratura organlari davlat boshqaruvi sohasida qonunlar ijrosi ustidan nazoratini amalga oshira borib, jamiyat va davlat oldida turgan fuqarolar ehtiyojlarini qondirish, ularning moddiy ta'minotini yaxshilash, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash kabi vazifalarning bajarilishiga sharoit yaratadilar. Boshqacha qilib aytganda, prokuror umumiy nazorat sohasida o'z vakolatlarini amalga oshira borib, boshqa organ va tashkilotlar bilan birgalikda siyosiy, davlat, iqtisodiy, ijtimoiy, milliy va madaniy qurilish masalalarini hal qiladi. Umumiy nazorat butun davlat hududida qonunlarning bir xil va aniq bajarilishini ta'minlash, qonuniylikning bir xil tushunilishini ta'minlash bilan birga, jinoiy hodisalar va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish vazifalarini ham bajaradi.<sup>6</sup>

Fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish yuzasidan prokurorlik faoliyatini samaradorligini oshirish to'g'risida 2004-yil 22-iyunda Bosh prokurorning 25-sonli buyrug'i qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra, mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalarida tubdan o'zgarishlar amalga

<sup>5</sup> «Prokuror nazorati». O.M .Madaliyev, Toshkent Davlar yuridik instituti, 2012-y. «ILM ZIYO» nashriyot uyi, 2012-y.

<sup>6</sup> «Prokuror nazorati». O.M .Madaliyev, Toshkent Davlar yuridik instituti, 2012-y. «ILM ZIYO» nashriyot uyi, 2012-y. 13-b.

oshirilayotgan bir paytda prokuratura organlari zimmasiga huquqiy madaniyatni yuksaltirish hamda demokratik huquqiy davlatni shakllantirishda muhim va mas'uliyatli vazifalar yuklatilganligi qayd etilgan. Xususan, buyruqda O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari nazorafaoliyatining muhim vazifasi — respublika hududida qonun ustuvorligini ta'minlash, inson va fuqaroning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, shaxsiy huquqlari hamda erkinliklarini, barcha millat va elatlarning teng huquqliligini, jamiyatda ijtimoiy adolat va qonuniylikni mustahkamlash, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy tuzumini jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishdan iborat deb hisoblanishi ko'rsatib o'tilgan. Bundan tashqari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tuman (shahar)lar ularga tenglashtirilgan prokurorlar nazorat faoliyatini amalga oshirishda:

1. Mamlakat hududida barcha huquq subyektlari, ular kimga bo'ysunishidan, kimning tasarrufida bo'lishidan va mulkchilik shaklidan qat'i nazar hamda barcha mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarni aniq va bir xilda ijro etishga majbur ekanliklari, ya'ni qonun talablarini hech qanday vaziyatda har xil talqin qilishga yo'l qo'ymaslikni. qonunlar qarama-qarshiligi holatlarida oliy yuridik kuchga ega bo'lgan Konstitutsiya normalari hamda umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalari to'g'ridan to'g'ri amal qilishligi e'tiborga olinishi;

2. Prokuror nazorati davlat idoralari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslardan mustaqil va faqat qonunga asoslanib olib borilishi va qonun buzilishlar kim tomonidan sodir etilishidan qat'i nazar, o'z vaqtida oldini olish, aniqlash va bartaraf etish, qonunni buzgan shaxslarga nisbatan qonunda belgilangan tartibda tegishli choralar qo'llanishiga, buzilgan huquqlarining amalda tiklanishiga erishilishi;

3. Iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy islohotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan Qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va hukumat qarorlarining ijrosi ustidan doimiy nazorat olib borish ustuvor yo'nalishlardan biri deb hisoblanishi;

4. Shaklidan qat'i nazar, mulkdorlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ular va davlatga yetkazilgan zararlarni o'z vaqtida va to'liq undirish, tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy huquq va erkinliklarini qo'riqlash bilan birgalikda iqtisodiy munosabatlardagi har qanday huquqbuzarliklarga qarshi kurashda mansabdor shaxslar, mahalliy hokimiyat, boshqaruv organlari, tekshiruv-nazorat idoralarning mas'uliyatini oshirishga qaratilgan huquqiy-normativ hujjatlarning aniq bajarilishi prokuror nazoratining diqqat markazida bo'lishi ta'minlanishi;

5. Respublika agrosanoat kompleksini, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazoratni olib borishda: yer, suv va o'rmon boyliklari, qishloq xo'jaligi va chorvachilik mahsulotlarini, mavjud texnika vositalarini, mineral-o'g'itlarni saqlash va ulardan oqilona va maqsadli foydalanish, dehqon, fermer, shaxsiy yordamchi va jamoa xo'jaliklari, dehqonchilik sanoati uyushmalari va mashina-traktor parklari faoliyatini, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini

kontraktatsiya qilishni tartibga soluvchi, qishloq infrastrukturasi yaratilishiga yo'naltirilgan qonunlarning og'ishmay bajarilishiga, jamoa xo'jaliklari faoliyatini jamoatchilik asosida boshqarish tartibiga rioya etilishiga alohida e'tibor berilishi;

6. Iqtisodiy va moliyaviy sohalarda qonuniylik ahvolini yanada mustahkamlash, to'lov intizomiga rioya qilish, yonilg'i-energetika mahsulotlaridan tejamli foydalanish, shartnoma majburiyatlariga oid huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan qat'iy nazorat o'rnatilishi;

7. Tabiat muhofazasi qonunchiligi ustidan nazorat olib borishda yer fondi turlarini huquqiy maqomini noqonuniy o'zgartirilishiga, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni izdan chiqarishga, o'rmon boyliklari, hayvonot dunyosining yo'qotilishiga, atrof-muhitning ifloslanishiga, suvdan xo'jasizlarcha foydalanishga qarshi kurashga qaratilgan qonun talablariga rioya etilishiga e'tibor kuchaytirilishi kabilar va boshqalar keltirib o'tilgan.<sup>7</sup>

O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari vazifalariga yuqorida ta'kidlangan qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash kabilar ham kirishi, bularni qonunchilik ustidan nazoratni olib borish orqali erishilishiga ham to'xtalib o'tgan edik.

Qisqacha qilib qonunlar ijrosi ustidan nazoratning mazmuniga to'xtaladigan bo'lsak, qonunlar ijrosi ustidan nazorat deganda vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi, shuningdek, ular tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligini nazorat qilishni, davlat boshqaruvi organlari sohasida qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan prokuratura organlarining nazoratini, Umumiy nazorat butun davlat hududida qonunlarning bir xil va aniq bajarilishini ta'minlash, qonuniylikning bir xil tushunilishini ta'minlash bilan birga jinoiy hodisalar va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish vazifalarini ham bajarishini tushunishimiz mumkin.

Prokuratura organlari davlat boshqaruvi sohasida qonunlar ijrosi ustidan nazoratini amalga oshira borib, jamiyat va davlat oldida turgan fuqarolar ehtiyojlarini qondirish, ularning moddiy ta'minotini yaxshilash, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash uchun sharoitlar yaratish, davlatimizdagi qonuniylikni mustahkamlash, qonun buzilish hollarini aniqlash, ularning vujudga kelishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni bartaraf etish, boshqa organ va tashkilotlar bilan siyosiy, davlat, iqtisodiy, ijtimoiy, milliy va madaniy qurilish masalalarini hal qilish kabilar qonunlar ijrosi ustidan nazoratning maqsadi hisoblanadi.

<sup>7</sup> "Prokuror nazorati". O.M. Madaliyev, Toshkent Davlat yuridik instituti, 2012-y. "ILM ZIYO" nashriyot uyi, 2012-y. 30-31-b.



Umuman olganda Prokuratura organlarining maqsad hamda vazifalarini to'laqonli amalga oshirish uchun shtatlar soni hamda oyliklar oshirib borilib prokuratura organlari xodimlari rag'batlantirib hamda qo'llab-quvvatlab kelinmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat xizmatchilarining lavozim maoshlariga yigirma foizli ustama haq belgilash to'g'risida"gi 3-iyul 1997-yildagi 339-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Prokuratura organlari xodimlarining ish haqi miqdorlarini oshirish to'g'risida"gi 20-dekabr 2002-yildagi PF-3178-sonli farmoni, O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari xodimlari kunini belgilash to'g'risida"gi 19-dekabr 2016-yildagi O'RQ-414-sonli qonuni va boshqalarni aytishimiz mumkin.

2016-yil oxiridan boshlab 8-yanvar O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari xodimlari kuni sifatida nishonlanib kelinmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, prokuratura organlarining huquqiy maqomi asosan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi qonuni va boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Prokuratura organlari qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, jismoniy shaxslar huquq-manfaatlarini hamda O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarlik holatlarini oldini olish hamda profilaktika kabi vazifa va maqsadlarini amalga oshiradi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. "Prokuror nazorati". O.M. Madaliyev, Toshkent Davlar yuridik instituti, 2012-y. "ILM ZIYO" nashriyot uyi, 2012-y. 30-31-b;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi organlari to'g'risida"gi 8-yanvar 1992-yildagi PF-313-sonli Farmoni;
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Harbiy tribunallar va harbiy prokuratura organlari to'g'risida"gi 28-yanvar 1992-yildagi PF-355-sonli Farmoni;
4. O'zbekiston Respublikasining 8-dekabr 1992-yildagi Konstitutsiyasi;
5. O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi 9-dekabr 1992-yildagi 746-XII-sonli qonuni (dastlabki);
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining "Prokuratura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga kiritish to'g'risidagi 9-dekabr 1992-yildagi 747-XII-sonli qarori;
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Prokuratura organlarining moddiy-texnika ta'minotini yaxshilash hamda shtatlari sonini ko'paytirish to'g'risida"gi 19-sentabr 1993-yildagi 468-sonli qarori (hozir kuchini yo'qotgan);

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining Harbiy prokuraturasini tashkil qilish to‘g‘risida”gi 30-mart 1999-yildagi PF-2277-son farmoni;
9. O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida 29-avgust 2001-yildagi 257-II-son qonuni;
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi soliqqa oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 28-noyabr 2002-yildagi 415-sonli qarori;
11. O‘zbekiston Respublikasining “Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi sudlarga o‘tkazilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 11-iyul 2007-yildagi O‘RQ-100-sonli qonuni;
12. O‘zbekiston Respublikasining **“Prokuratura to‘g‘risida”gi 257-II-sonli qonuni;**